

Bo'lim boshlig'i:

i.f.n.dot, Shakarov Qulmat Ashirovich

Qabul vaqti:Seshanba – Payshanba (15:00-17:00 gacha)

Telefon: (0 371) 238-65-12

E-mail: q.shakarov@tuit.uz

Magistratura bo'limi faoliyati haqida ma'lumot:

O'zbekistonda mustaqillik yillarida ta'lim tizimining barcha turlarini, jumladan, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish bo'yicha aniq maqsadli keng miqyosdagi ishlar amalga oshirila boshlandi. Mamlakatimizda 1997 yil 29 avgustda ta'lim yo'nalishini dunyo standartlari darajasiga yetkazish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. Mazkur qonun hujjatlariga ko'ra, 1999 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasidagi bir qator yetakchi oliy ta'lim muassasalarida ta'lim berishning ikkinchi bosqichi magistratura bo'limlari ochilib, magistrarlar tayyorlana boshlandi, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ga muvofiq Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (TATU)da 1999-2000 o'quv yilidan boshlab magistratura bo'limi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti magistratura bo'limi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 10 sentyabrdagi 190-sonli "O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq alohida bo'lim sifatida shakllantirilib, magistratura bo'limi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 2 martdagi 36-sonli "Magistratura to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori asosida faoliyat yuritmoqda.

Hozirgi kunda universitetda 10 ta mutaxassislik bo'yicha jami 262 nafar magistratura talabalari tahsil olmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 26 martdagi "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1942-son qaroriga asosan, 2013-2014 o'quv yilidan boshlab universitetda:

- 5A350101-Telekommunikatsiya injiniringi ("Axborot uzatish tizimlari", "Telekommunikatsiya tarmoqlari", "Teleradiouzatish");
- 5A330501-Kompyuter injiniringi("Kompyuter tizimlarini loyixalash", "Amaliy dasturiy vositalarni loyihalash", "Axborot va multimediyaga texnologiyalari", "Axborot xavfsizligi, kriptografiya va kriptoanaliz");
- 5A350301-Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida iqtisodiyot va menejment;
- 5A330601-Dasturiy injiniring;
- 5A350601--Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 26 iyundagi PF-2193 sonli farmoniga muvofiq, 2014-2015 o'quv yilidan boshlab universitetga yangi 2 ta:

- 5A330502 - Elektron hukumat tizimini boshqarish;
- 5A350602 - Elektron kutubxona va arxivlar magistratura mutaxassisliklariga talabalar qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 23 iyundagi PQ-2359 sonli qaroriga asosan, 2015-2016 o'quv yilidan boshlab universitetga yangi 2 ta:

- 5A350104 - Telekommunikatsiya tizimlari va tarmoqlarida axborot xavfsizligi;
- 5A350501 - Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisliklari tashkil qindi.

2015 yil 22 maydagi O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonuniga asosan, 2016-2017 o'quv yilidan boshlab universitetga yangi 1 ta:

- 5A350302 - Elektron tijorat

Hududiy filiallarda 5A330501-Kompyuter injiniringi ("Kompyuter tizimlarini loyihalash") mutaxassisligi bo'yicha magistr kadrlarni tayyorlash yo'lga qo'yilgan.

Hozirgi kunda TATU axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasida Markaziy Osiyoda yetakchi o'quv muassasasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 2 iyundagi "Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-91 sonli Qaroriga muvofiq TATU axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Universitet kafedralarida magistratura o'quv rejasidagi fanlarni olib borish va o'tkazish uchun zaruriy o'quv laboratoriyalari va xonalari majud bo'lib, ular yetarli darajada zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan. Jumladan, universitetda mashg'ulotlar olib borish uchun 45 ta multimedia sinflari, 52 ta kompyuter sinflari, va 43 ta o'quv va o'quv-ilmiy laboratoriya xonalari mavjud.

Alohida ta'kidlash joiz o'tgan yillar maboynida universitetda AKTRF, "O'zbektelekom" AK, Xitoy Xalq Respublikasining ZTE, Huawei kompaniyalari, "Coscom" MCHJ, KOICA tashkilotlari bilan hamkorlikda quyidagi

"Samsung-KOICA";

"AT-servis va parallel qayta ishlash";

"Multimedia injiniring";

"Axborot texnologiyalarining xavfsizlik servislari";

"Tovush signallarini qayta ishlash";

"Yosh dasturchilar";

"Matematik modellashtirish va dasturlash"

"CDMA-450 standartidagi uyali aloqa tizimi";

"Elektron kutubxona";

"Elektron axborot ta'lim resurslari";

"Interaktiv o'qitish sinfi";

"IPTV o'quv laboratoriyasi";

"GSM standartidagi mobil aloqa tizimlari";

"Optik tolali liniyalar va qurilmalar";

"Keng polosali simsiz aloqa tizimlari";

"Zamonaviy telekommunikatsiya tizimi"

"Zamonaviy telekommunikatsiya tizimi" NGN texnologiyasiga asoslangan o'quv laboratoriyalari tashkil etilgan. Ushbu zamonaviy o'quv laboratoriyalaridan magistraturada o'quv jarayonini tashkil etishda keng foydalanib kelinmoqda.

Universitetda magistratura talabalarining mustaqil ishlashi uchun barcha sharoitlar yetarli, jumladan universitet 45 mbit/s (tas-ix), 8 mbit/s (tashqi kanal) tezlikda internet tarmog'iga ulangan zamonaviy

kompyuterlar bilan jixozlangan 3 ta elektron kutubxona va kafedralardagi 52 ta kompyuter sinflari mavjud. Bundan tashqari, universitet hududida internetga ulanish uchun simsiz aloqa vositalari (wi-fi) o'rnatilgan.

Universitetning <http://www.tuit.uz> sayti orqali elektron axborot resurslari bazasi (<http://www.library.tuit.uz>), Elektron ta'lim tizimi (etuit.uz), Ziyonet ta'lim portaliga (<http://www.ziyonet.uz>), Respublika axborot-kutubxona tizimlaridan va boshqa oliy ta'lim muassasalari saytlaridan hamda mahalliy va xalqaro ilmiy axborotlar bazalaridan foydalanish uchun sharoitlar yaratilgan.

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning istiqbolli vazifalaridan kelib chiqqan holda oliy malakali ilmiy kadrlar tayyorlash sohasida, universitetda 2015 yilga qadar 2200 dan magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanib, magistr darajasini beruvchi diplomga ega bo'ldilar.

Universitetda magistratura talabalarining o'quv mashg'ulotlariga O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tasarrufidagi korxonalar va tashkilotlardan yetakchi mutaxassislar, tarmoq ilmiy-tadqiqot muassasalari yetakchi olimlari va boshqa OTMLaridan yuqori ilmiy-pedagogik salohiyatli professor-o'qituvchilar jalb etilgan. Magistratura talabalarining magistrlik dissertatsiyalari mavzularining 80% sohaning ustuvor yo'nalishlariga va muammolariga bag'ishlangan hamda ularga sohaning yuqori malakali yetakchi mutaxassislari ilmiy rahbar va ilmiy maslahatchi etib belgilangan.

Magistratura bo'limi talabalarining turli sohalarda erishgan muvaffaqiyatlari universitet ma'muriyati tomonidan munosib taqdirlanib, yanada rahbatlantirish maqsadida ularga barcha sharoitlar yaratib berilmoqda. Universitetning istiqbolli rejasida belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida, professor-o'qituvchilar tomonidan amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli talabalar va magistrantlar jalb etilmoqda. Shuningdek ularni "Katta ilmiy xodim-izlanuvchilar instituti"ga kirishlariga yo'naltirish hamda ular tomonidan ishlab chiqilgan loyiha va texnik ishlanmalarini tanlov asosida "Yangi g'oya. Investitsiya. Innovatsiya" yoshlar jamg'armasi orqali moliyalashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Universitet magistraturasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni yanada samarali tashkil etish maqsadida 2014 yil maboynda Janubiy Koreyaning yetakchi universitetlaridan 20 dan ortiq professor-o'qituvchilari, KOICA tashkilotining ko'ngillilari, Samsung kompaniyasining 10 dan ortiq yetakchi mutaxassislari (ko'ngilli sifatida), TeliSonera kompaniyasining mintaqaviy rahbarlari va menejerlari, "Coscom" MJCH ning rahbar xodimlari universitet magistraturasi talabalarini bilan uchrashuv va muzokaralar o'tkazgan.

Chuqur bilimga ega bo'lish, ilmiy izlanishlarga intilish xalqimizga xos xususiyatlardan biri hisoblanadi. Shu bois ham, ta'lim muassasalarida ma'lum bir bilim darajasini egallagan yigit-qizlarimiz o'z egallagan sohalari bo'yicha kelajakda bundanda ko'proq bilimga, kasbiy mutaxassisliklarining sir-sinoatlarini to'liq egallashga, muntazam ravishda yetuklik va mukammalikka intiladilar. TATU magistrantlari respublikamiz miqyosida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar sohasining yanada rivojlanishi uchun o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Magistratura bo'limining maqsadi va vazifalari

1. Universitet magistratura bo'limining asosiy maqsadi uzluksiz ta'lim tizimining magistratura bosqichida yuqori malakali, yuksak madaniyatli, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan yetuk, bilim jihatdan xalqaro standartlarga mos keluvchi raqobatbardosh magistrantlarni tayyorlash.
2. Magistratura bo'limi bir necha mutaxassislik bo'yicha magistrantlar tayyorlaydigan universitetning o'quv-ilmiy va ma'muriy tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi.
3. Magistraturada o'quv jarayoni tegishli ta'lim yo'nalishi (magistratura mutaxassisligi) bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan ishlab chiqilgan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan belgilangan tartibda ekspertizadan o'tkazilgan hamda Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashda muhokama qilinib, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (bundan buyon matnda Vazirlik deb yuritiladi) tomonidan tasdiqlangan

mutaxassisliklar bo'yicha Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari (bundan buyon matnda Davlat ta'lim standartlari deb yuritiladi) va o'quv rejalari asosida tashkil etiladi.

4. O'quv jarayonini tashkil etish, mashg'ulotlar jadvalini tuzishda ishtirok etish, magistrantning mustaqil ishlari xajmini belgilash va nazorat qilish.
5. Mutaxassislik kafedralari hamda vazirlik tizimidagi korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda sohaning dolzarb muammolariga bag'ishlangan magistrlik dissertatsiya mavzulari bazasini shakllantirish.
6. Mutaxassislik kafedralarining kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar bilan o'zaro hamkorlik shartnomalarini tuzish va magistratura talabalarining ilmiy-pedagogik amaliyotini o'zaro hamkorlikda tashkil etish.
7. Magistratura talabalari bilan bog'liq bo'lgan buyruqlar loyihalarini shakllantirish va universitet rektoriga tavsiya qilish.
8. Magistratura talabalari orasida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish, ularni odob ahloq qoidalari bilan tanishtirish.
9. Magistratura talabalarining ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik amaliyotlarini tizimdagi korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.
10. Universitet magistraturasiga qabul qilish ishlarini tashkillashtirish va amalga oshirish hamda qabul bo'yicha taklif va mulohazalarni universitet rahbariyati bilan hamkorlikda yuqori tashkilotlarga taqdim qilish.
11. Magistratura faoliyatini tashkil etish, uni amalga oshirish bo'yicha chet el universitetlari tajribalarini o'rganish va ularni samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda ularni o'quv jarayoniga tadbir qilish.